# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA "AKT XIZMATLARI" TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHIYATI....14
Shermatov Sherzod Xotamovich
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI....20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI....26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI....33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI....38
Ne'matova Mavsuma,Xolmamatov Diyorbek
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ....43
Буранова Лола Вахобовна
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ....54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI....60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA....64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI....73
Abdullo Sohibov
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI....84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich
KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI....91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI....95
Dadajonova Madina Ravshan qizi
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI....100
Ochilov Farhod Malikovich
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA)....106
Hayitov Jamshid Xolboyevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI
OMILLAR TAHLILI ........ 111

**Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi**
IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH
STRATEGIYALARI ........ 118

**Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi**
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR ........ 122

**Karimova Iroda Abdusattarovna**
KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES
MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ........ 128

**Qurbonov Abror Abdullayevich**
GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA:
A COMPARATIVE STUDY ........ 133

**Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li**
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI ........ 142

**Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi**
ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА
В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА ........ 148

**Джураева Гузаль Шавкатовна**
BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH ........ 156

**Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ........ 161

**Marqayev Xurshid Aliqulovich**
THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING
AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS ........ 165

**Zafar Qodirov Abdivaxobovich**
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING
SAMARADORLIGINI BAHOLASH ........ 170

**Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich**
**Shukurova Nilufar Qahramonova**
IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL
ECONOMY ........ 175

**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA
INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 179

**Aliyev Arslon Salom o'g'li**
A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT
GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND
ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS ........ 184

**Wang Biao**
USTAMA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA
MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH
........ 190

**Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna**
INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR
TIZIMI ........ 195

**Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li**
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI
TAKOMILLASHTIRISH
........ 202

**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**

MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 207
**Elomonov Dadaxon Ozodullayevich**

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ........ 213
**L.S. Azimova**

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING ........ 218
**Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li**

PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 223
**Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li**

TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI ........ 227
**Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna**

CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH ........ 232
**Nurmanov Sherzod Xujayarovich**

KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI ........ 237
**Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li**

MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI ........ 242
**Raximov Azizbek Saliyevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI

**Raximov Azizbek Saliyevich**
**International School of Finance, Technology and Science (ISFT) dotsenti**

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda mikroiqtisodiyotda iste'molchilar xulq-atvori va talab shakllanishi omillari o'rganilgan. Iste'molchilar qarorlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilingan. Shuningdek, iste'molchilar xatti-harakatlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari talabni prognoz qilish va bozor samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: iste'molchi, talab, mikroiqtisodiyot, xulq-atvor, modellashtirish, daromad, narx, motivatsiya, bozor, qaror qabul qilish.

**Аннотация.** В данном исследовании изучены поведение потребителей и факторы формирования спроса в микроэкономике. Проанализированы экономические, социальные и психологические факторы, влияющие на принятие решений потребителями. Также рассмотрены теоретические и практические аспекты моделирования потребительского поведения. Результаты исследования имеют важное значение для прогнозирования спроса и повышения эффективности рынка.

Ключевые слова: потребитель, спрос, микроэкономика, поведение, моделирование, доход, цена, мотивация, рынок, принятие решений.

**Annotation.** This study examines consumer behavior and the factors influencing demand formation in microeconomics. Economic, social, and psychological determinants affecting consumer decision-making are analyzed. In addition, theoretical and practical aspects of modeling consumer behavior are explored. The findings are significant for demand forecasting and improving market efficiency.

**Keywords**: consumer, demand, microeconomics, behavior, modeling, income, price, motivation, market, decision-making.

## KIRISH

Mikroiqtisodiyotda iste'molchi bozorning eng muhim harakatlantiruvchi subyekti hisoblanadi. U korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni xarid qilib, bozorda talabni shakllantiradi hamda iqtisodiy faoliyatning barqarorligini ta'minlaydi. Shu bois iste'molchilar xulq-atvori va talab shakllanishi omillarini o'rganish mikroiqtisodiy tahlilning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iste'molchilarning bozordagi xatti-harakatlari va xarid qarorlari ularning daromadi, narxlar darajasi, afzalliklari, shuningdek, shaxsiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Talabning hajmi va tarkibi aynan shu omillarga bog'liq bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish bozordagi o'zgarishlarni oldindan baholash imkonini beradi. An'anaviy mikroiqtisodiy yondashuvlarda iste'molchilar ratsional qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida qaralsa-da, amalda ularning xulq-atvori ko'p hollarda noratsional omillar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli iste'molchilarni o'rganishda marketing va bixevioral iqtisodiyot yondashuvlarini ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasida aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va ichki bozorni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda aholining iste'mol darajasi, iste'mol savatchasi va talab tuzilmasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki talabning shakllanishi ishlab chiqarish hajmi, bozor muvozanati va iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtacha 6,4 foizni, kapital qo'yilmalar 9,9 foizni, eksport 9,6 foizni tashkil etishi, ishsizlik darajasi 9,3 foizdan 5,2 foizga va inflyatsiya 14,4 foizdan 4,3 foizga pasayishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2030-yilda kishi boshiga yalpi ichki mahsulot 4500 AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mikroiqtisodiyotda iste'molchilar xulq-atvori va talab shakllanishi masalalari ilmiy adabiyotlarda uzoq tarixga ega. Iste'molchilarni o'rganish bo'yicha dastlabki nazariy yondashuvlar Adam Smithning 1776-yilda yozilgan "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" asarida o'z aksini topgan. Unda iste'mol ishlab chiqarishning yakuniy maqsadi sifatida qaralib, talab iqtisodiy faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'kidlangan. Keyinchalik marjinalistlar maktabi vakillari iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilishda yangi bosqichni boshlab berdilar. Ular insonning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonini foydalilik (utility) tushunchasi orqali izohlab, talab shakllanishini iste'molchilarning chegaraviy foydalilikni maksimallashtirishga intilishi bilan bog'ladilar. Bu yondashuv mikroiqtisodiyotda talab nazariyasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Iste'molchilar xulq-atvorini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar orqali ham tushuntirishga qaratilgan tadqiqotlar XIX–XX asrlarda rivojlandi. Xususan, Karl Marxning tovar fetishizmi g'oyasi iste'mol jarayonida ijtimoiy munosabatlarning aks etishini ko'rsatib berdi. Thorstein Veblenning namoyishkorona (nufuzli) iste'mol nazariyasi esa talab shakllanishida ijtimoiy maqom va prestij omillarining ahamiyatini asoslab berdi. Georg Simmel moda orqali iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgaruvchanlikni tushuntirgan bo'lsa, Max Weber iste'molni madaniy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'lab tahlil qildi. Ushbu yondashuvlar iste'molchilar qarorlariga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ochib berishga xizmat qildi.

Zamonaviy mikroiqtisodiy tadqiqotlarda esa iste'molchilar xulq-atvori kompleks yondashuv asosida o'rganilmoqda. Bunda talab shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida daromad darajasi, narxlar, afzalliklar, axborotga ega bo'lish darajasi, shuningdek, raqamli muhit va globallashuv jarayonlari ko'rib chiqilmoqda. Ayniqsa, bixevioral iqtisodiyot yo'nalishi doirasida iste'molchilarning noratsional qarorlari, kognitiv cheklovlari va psixologik omillar ta'siri keng tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar nisbatan cheklangan bo'lib, asosan marketing yo'nalishida amalga oshirilgan. Xususan, M. Ziyaeva tomonidan marketing strategiyalarini shakllantirishda iste'molchilar xulq-atvor modellarini ishlab chiqish masalalari tadqiq etilgan. J. Jalilovning ishlarida esa iste'molchilar motivatsiyasi va, ayniqsa, sanoat bozorlarida (B2B) qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, respublikada iste'mol tovarlari bozorida talab shakllanishi va iste'molchilar xulq-atvorini mikroiqtisodiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ularning o'zgarish tendensiyalarini baholash va prognozlash masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy-uslubiy asoslarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar xulq-atvorini va talab shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni mikroiqtisodiy nuqtai nazardan o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi: iste'molchilar xulq-atvorining nazariy asoslarini tahlil qilish; talab shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash; iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonini modellashtirish orqali ularning bozordagi xatti-harakatlarini tushuntirish.

Tadqiqot metodologiyasi klassik va zamonaviy mikroiqtisodiy nazariyalarga asoslanadi. Jumladan, iste'molchilar tanlovi nazariyasi, foydalilikni maksimallashtirish konsepsiyasi, talab funksiyasi hamda bixevioral iqtisodiyot yondashuvlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning iste'molchilar xulq-atvori va uy xo'jaliklari faoliyatiga oid ilmiy ishlari o'rganilib, ular tanqidiy tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: tahlil va sintez usuli orqali mavjud nazariy qarashlar umumlashtirildi; taqqoslash usuli yordamida turli yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi; iqtisodiy modellashtirish usuli orqali iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayoni va talab shakllanishi mexanizmi tasvirlandi.

Modellashtirish ushbu tadqiqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning asosiy maqsadi iste'molchilar xulq-atvorining ichki qonuniyatlarini aniqlash va turli omillar ta'sirida talabning qanday o'zgarishini tushuntirishdan iborat. Iste'molchi modelida daromad, narxlar darajasi, afzalliklar, axborot va tashqi muhit omillari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Bu esa talab funksiyasining shakllanishini va uning dinamikasini ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

Shuningdek, iste'molchilar xulq-atvorini modellashtirishda uni soddalashtirilgan, ammo mazmunan to'liq aks ettiruvchi shaklda ifodalashga alohida e'tibor qaratildi. Modellar iste'molchilarning haqiqiy xatti-harakatlarini umumlashtirgan holda, ularning qaror qabul qilish jarayonidagi asosiy bosqichlar va omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozorda iste'molchilarning xatti-harakatlarini aniqlash uchun turli xil modellar mavjud. Qabul qilingan mezonga qarab, quyidagi modellarni ajratish mumkin: oddiy va murakkab; makro va mikro darajalarda; nazariy va empirik; tavsiflovchi (tarixiy yoki hozirgi), me'yoriy va prognozli; dinamik va ikkilamchi; funksional va innovat-

sion; xulq-atvor va statistik; miqdoriy va sifatli; matematik va tipologik; umumiy va davriy.

Bozorda iste'molchilarning xatti-harakatlari modellarini har tomonlama tahlil qilish zarurligini hisobga olgan holda, ularni murakkablik darajasiga qarab, oddiy va murakkab modellarga ajratish mumkin. Oddiy modellar umuman iste'molchilarning xatti-harakatlarini tavsiflaydi va tushuntiradi. Murakkab modellardan farqli o'laroq, ularda faqat iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar keltiriladi.

Ularning orasida to'rt xil modelni ajratish mumkin:

1. "qora quti" — bu iste'molchilar tomonidan ichki qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq tahlillarni o'z ichiga olmaydigan modelning umumiy nomi bo'lib, iste'molchiga ta'sir etuvchi omillar va ular keltirib chiqaradigan reaksiyalarni bevosita kuzatish natijasiga asoslanadi;

2. qaror qabul qilish jarayoni — ushbu modellar korxonalar marketing faoliyatida keng qo'llaniladi va faol iste'molchi tomonidan qaror qabul qilishning turli bosqichlarini aks ettiradi;

3. "shaxsiy o'zgaruvchilar" — bu modellar "qora quti" modelidan farqli o'laroq, iste'molchilarning xulq-atvorini shakllantiruvchi ichki omillarga e'tibor qaratadi hamda qaror qabul qilishning aniq ichki jarayonlarini namoyon etadi;

4. gibrid modellar — ushbu turdagi modellar qaror qabul qilish jarayoni modeli va shaxsiy o'zgaruvchilar modelini birlashtiradi (masalan, Rays modeli).

Iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladigan ko'proq o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan murakkab "qora quti" modeli iste'molchilar xulq-atvori muhitining modeli hisoblanadi. Model iste'molchining sotib olish qarorlariga ta'sir qiluvchi rag'batlarni aks ettiradi. Bunday modelning markazida iste'molchining o'zi turadi.

"Qora quti" modeli Philip Kotlerning "sotib olish jarayoni" modeli orqali aniq ifodalangan. Ushbu model iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonidagi kirish va chiqish omillarini aniqlaydi hamda iste'molchilarning xatti-harakatlarini oldingi modellarga nisbatan ancha murakkabroq tarzda namoyon etadi.

Iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganishning klassik modellari motivatsiya bilan bog'liq bo'lib, ular iste'molchilar faolligini keltirib chiqaruvchi va uning yo'nalishini aniqlovchi omillarni tushuntiradi. Inson har qanday vaqtda turli ehtiyojlarni boshdan kechiradi, biroq ularning aksariyati uni darhol harakat qilishga undamaydi. Ehtiyoj yetarli intensivlik darajasiga yetgandagina motivga aylanadi. Motiv — bu ehtiyojning shunday shakliki, u insonni uni qondirishga yo'naltiradi.

Marketingda iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilishda ko'pincha Sigmund Freud va Abraham Maslow motivatsiya nazariyalari qo'llaniladi. Freydning psixografik modeli asosida iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayoni o'rganiladi va bunda motivlarning ko'p qismi ong osti bilan bog'liq deb qaraladi.

Maslou nazariyasiga ko'ra, ehtiyojlar iyerarxik tizimda joylashgan bo'lib, ular quyidagi darajalarga ajratiladi: fiziologik (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy), xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat va o'zini namoyon qilish ehtiyojlari. Inson avvalo eng muhim ehtiyojni qondirishga intiladi va u qondirilgach, keyingi ehtiyoj ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bozorda iste'molchilarning xatti-harakatlarini tushuntirish uchun murakkab modellar ham qo'llaniladi. Ular qatoriga tizimli modellar (qaror qabul qilish jarayonining yaxlit tizimini aks ettiradi), stoxastik modellar (ehtimollik asosida prognozlashga xizmat qiladi) va rag'batlantiruvchi modellar kiradi.

Eng keng tarqalgan modellar qatoriga Govard–Shet (Howard–Sheth), Nikosiya (Nicosia), Engel–Kollat–Blekvell modellari kiradi. Govard–Shet modeli iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonini psixologik nuqtai nazardan tushuntiradi va unda iste'molchi xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ichki hamda tashqi omillar tizimli ravishda yoritiladi.

Engel–Kollat–Blekvell modeli esa qaror qabul qilish jarayoni, kirish ma'lumotlari, axborotni qayta ishlash va ta'sir etuvchi omillar kabi bosqichlardan iborat bo'lib, iste'molchilarning xulq-atvorini kompleks tarzda ifodalaydi.

Nikosiya modeli korxona va iste'molchi o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettirib, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikatsion jarayonlarni tahlil qiladi. Ushbu model iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonini bosqichma-bosqich yoritadi va teskari aloqani ham hisobga oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, mikroiqtisodiyotda iste'molchilar xulq-atvori va talab shakllanishi omillarini o'rganish bozor mexanizmlarini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Soddalashtirilgan iqtisodiy modellar iste'molchilarning bozordagi xatti-harakatlarini aks ettirish va talabning shakllanish jarayonini tushuntirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayrim modellar iste'molchilar qarorlarini integral yondashuv asosida tahlil qilsa, boshqalari esa talab dinamikasi va qaror qabul qilish jarayonining bosqichlarini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilarning talabini shakllantiruvchi omillar — daromad darajasi, tovar va xizmatlar narxi, afzalliklar, axborotga ega bo'lish darajasi, shuningdek, ijtimoiy va psixologik omillar — o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu sababli talabni aniq prognoz qilish uchun kompleks va ko'p omilli yondashuvdan foydalanish zarur.

Iste'molchilar xulq-atvorini chuqur o'rganish korxonalar uchun noto'g'ri qarorlar qabul qilish xavfini kamaytiradi, bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Biroq bozordagi tovarlar xilma-xilligi va iste'molchilar xatti-harakatlarining turliligi eng maqbul modelni tanlashni murakkablashtiradi.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

— iste'molchilar xulq-atvorini o'rganishda mikroiqtisodiy va bixevioral yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda kompleks tadqiqotlar olib borish;

— talab shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni muntazam monitoring qilish va ular asosida iqtisodiy prognozlar ishlab chiqish;

— uy xo'jaliklari iste'molini tahlil qilish orqali aholining real daromadlari va iste'mol imkoniyatlarini aniq baholash tizimini takomillashtirish;

— raqamli iqtisodiyot sharoitida iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlarni tadqiq qilish va zamonaviy modellardan foydalanishni kengaytirish;

— iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini rivojlantirish bilan birga, ularning bozordagi qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish va prognozlash funksiyalarini kuchaytirish.

Xususan, mamlakatda iste'molchilar bozorini rivojlantirish va talabni samarali boshqarish maqsadida tegishli tashkilotlar faoliyatini kengaytirish, jumladan, iste'molchilar xulq-atvorini prognozlash va tahlil qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. O'zbekistonda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi faoliyati PF-5817 — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-sentabrdagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy va institutsional tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan tashkil etilgan. Agentlik asosiy e'tiborini iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solishga qaratadi. Fikrimizcha, agentlikning asosiy funksional vazifalari qatoriga global raqamli transformatsiya jarayonlariga ko'ra o'zgarib borayotgan iste'molchilar xulq-atvori o'zgarishlarini tadqiq qilish va iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarni unga moslashtirish kabi vazifalarni ham qo'shish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5975-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4776669
2. O'zbekistonda "Iste'mol savatchasi" qachon joriy etiladi? – https://uza.uz/uz/posts/zbekistonda-iste-mol-savatchasi-achon-zhoriy-etiladi-22-07-2019
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: ОС-89, 1997. – 255 с.
4. Пискунова Л., Карманов А. Потребительское поведение: теоретико-методологические основания изучения // Экономика: вчера, сегодня, завтра. – 2012. – № 9–10. – URL: http://publishing-vak.ru/file/archive-economy-2012-9/3-piskunova.pdf
5. Блэкуэлл Р., Миниард П., Энджел Дж. Поведение потребителей. – СПб.: Питер, 2010. – 944 с.
6. Алешина К. В. Поведение потребителей: учебное пособие. – М.: Фаир-Пресс, 2015. – 284 с.
7. Смит А. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot. – M., 1776.
8. Рикардо Д. Siyosiy iqtisod va soliq solish tamoyillari. – M., 1817.
9. Маркс К. Kapital. – M., 1867.
10. Веблен Т. Bekorchi sinf nazariyasi. – M., 1899.
11. Вебер М. Protestant axloqi va kapitalizm ruhi. – M., 1905.
12. Зиммел Г. Moda falsafasi. – M., 1904.
13. Зомбарт В. Hashamat va kapitalizm. – M., 1913.
14. Котлер Ф. Marketing asoslari. – T.: 2004.
15. Самуэлсон П., Нордхаус У. Iqtisodiyot. – M.: 2010.
16. · Манкью Н. Грегори. Mikroiqtisodiyot tamoyillari. – M.: 2015.

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2026. № 4 (2)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz